MARKAZIY OSIYO O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI SIFATIDA

Shoislom Akmalov

O`zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti,

siyosoy fanlar nomzodi

Annotatsiya. Mazkur maqola Markaziy Osiyoning keyingi yillarda jahon siyosatidagi nufuzini oshirishga yo`naltirilgan sa`y-harakatlardagi O`zbekiston Respublikasi faoliyatining mazmun-mohiyatini tahlil qilishga bag`ishlangan. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizning so`ngi tarixiy davrda jahon siyosatida amalga oshirgan oqilona va serqirra faoliyati hosilasi sifatida mintaqa davlatlarining siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy o`zaro bog`liqligi va hamkorligi darajasi ko`p sohalarda rivojlanganligini guvohi bo`lish mumkin. Azaldan mamlakatlar o`rtasida muammolarga sabab bo`lgan jihatlarning aksariyati hal qilinib, yaxshi qo`shnichilik aloqalarini yanada yuksaltirish orqali mintaqada xavfsizlik, barqarorlik vaziyatini doimiy omillarga aylantirish imkoniyati varatildi.

Kalit so‘zlar: *Markaziy Osiyo, O`zbekiston Respublikasining ko‘p tomonlama mintaqaviy diplomatiyasi, mintaqada siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy o`zaro bog`liqlik omili, Markaziy Osiyo davlatlati munosabatlarining institutsionallashuvi.*

Аннотация. Данная статья посвящена анализу сущности деятельности, осуществляемой Республикой Узбекистан в последние годы с целью усиления влияния Центральной Азии в мировой политике. В этой связи можно констатировать, как в результате разумной и многогранной деятельности Узбекистана в последние годы в сфере внешней политики, удалось достичь повышения уровня политической, экономической, социальной взаимосвязи и сотрудничества центрально-азиатских стран во многих сферах. Большинство проблем, существовавших долгое время во взаимоотношениях государств

региона, были разрешены, созданы благоприятные условия для дальнейшего укрепления добрососедских отношений, а также значительному улучшению ситуации с безопасностью и стабильностью в Центральной Азии.

Ключевые слова: *Центральная Азия, многосторонняя региональная дипломатия Республики Узбекистан, фактор политической, экономической и социальной взаимосвязи в регионе, институционализация отношений между государствами Центральной Азии.*

Abstracts. This article analyzes the activities undertaken by the Republic of Uzbekistan in recent years to strengthen Central Asia's influence in global politics. In this regard, one can observe how, as a result of Uzbekistan's prudent and multifaceted foreign policy efforts in recent years, the level of political, economic, and social ties and cooperation between Central Asian countries has been enhanced across many areas. Most long-standing problems in relations between states in the region have been resolved, thereby creating favorable conditions for the further strengthening of good-neighborly relations and a significant improvement in security and stability in Central Asia.

Key words: *Central Asia, multilateral regional diplomacy of the Republic of Uzbekistan, factors of political, economic and social interconnection in the region, institutionalization of the relations between states of Central Asia.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil sentabr oyida bo`lib o`tgan 72-majlisidagi nutqida “O‘zbekiston bugungi kunda o‘zining tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqda. Bu – har tomonlama chuqur o‘ylab tanlangan yo‘ldir. Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo‘shnichilik hududiga aylanishidan bevosita manfaatdordir” deb bildirilgan fikri mamlakatimizning o‘tgan davrda mazkur

mintaqada amalga oshirib kelayotgan peshqadam va halol siyosatiga mustahkam zamin yaratib berdi.

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib, tashqi siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bularning barchasi jamiyat ehtiyojlari va Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekistonni tarixiy rivojlanishning mutlaqo yangi bosqichiga olib chiqish irodasi bilan bog‘liq.

O`zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari ham yangilanar ekan, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlash hamda sifat va o`zaro manfaatdorlikka asoslangan holda yanada yuqori pog`onaga olib chiqishga alohida ahamiyat berildi. Samarali mintaqaviy diplomatiyani amalga oshirish, Markaziy Osiyoda qulay konstruktiv siyosiy muhit yaratish, qo`shni davlatlar bilan samarali muloqot va maslahatlashuvlar orqali o‘zaro manfaatli sheriklikni o‘rnatish, bardavom xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlari deb, belgilandi va bu yo`lda og`ishmasdan po`rsamar faoliyat olib borildi.

Ta`kidlash joizki, zamonaviy xalqaro siyosiy munosabatlar mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlaridan va iqtisodiy hamkorlikdan keng foydalanish bilan tavsiflanadi. Bu jarayonlar Markaziy Osiyoda ham sezilarli ta'sir ko'rsatishini rasmiy Toshkent inobatga olgan holda zikr etilgan davrdan e`tiboran mintaqada o'zaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlarda faollikni oshirish masalasiga jiddiy yondashdi. Mintaqaviy hamkorlik Markaziy Osiyo uchun o'zaro va xalqaro savdoni oshirish, investitsiya oqimlarini jalb qilish va global iqtisodiyotga har tomonlama integratsiyalashish uchun juda muhimligidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yangi tashqi siyosati Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikka sezilarli darajada turtki berdi. Mazkur pallagacha mavjud bo`lgan muammolarning aksariyati, xususan, mintaqada xavfsizlik tizimi va mexanizmining nomukammal ekanligi, chegaralar mojarolari va suv resurslari uchun

kurash masalalari hamda mintaqada yetakchilikni qo`lga kiritish uchun intilish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda “boshi berk ko`cha” vaziyati kabi o`nyilliklar davomida yig`ilib qolgan muammolarni inobatga olib, O`zbekiston hukumati maqbul siyosatni tatbiq qilishga kirishdi. Mintaqadagi tanglikni bartaraf etish, juda bo`lmaganda yumshatish niyatida amalga oshirilgan bundayin oqilona va uzoqni o`ylab amalga oshirilgan sa`y-harakatlar O'zbekiston va mintaqadagi qo'shni davlatlar o'rtasidagi mojaroli vaziyatlarni bartaraf etish uchun qulay sharoitlar yaratdi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi bir necha omil bilan belgilanadi. Chunonchi, O‘zbekiston prezidentining tashqi siyosat masalalari bo‘yicha maxsus vakili Abdulaziz Komilov (nutq so'zlagan paytda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri edi) "Markaziy Osiyo - O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi" nomli 2017-yil 11-avgustda Toshkentda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyasidagi chiqishida O'zbekistonning "yangi" mintaqaviy siyosatining asosini quyidagilar tashkil etganini sharhlab berdi:

Markaziy Osiyo - 1-ustuvor yo'nalish, deb belgilanishi shunchaki bayonot bo`lmay, balki ongli ravishdagi tanlov va yaxshi qo'shnichilik munosabatlariga samimiy intilish ekanligi ta'kidlandi.

Paradigma o'zgarishi: O'zbekiston yakkalanish siyosatidan barcha qo'shni davlatlar bilan ochiq, konstruktiv muloqotga o'tish orqali chegara, suv, transport kabi ta`sirchan masalalar bo`yicha kelishuvga erishish yo'li bilan hal qilishga intildi.

O'zbekistonning mas'uliyati: O'zbekiston mintaqadagi barcha mamlakatlar bilan chegaraga ega va aholisi eng ko'p bo'lgani uchun "Markaziy Osiyoning kelajagi uchun alohida mas'uliyat" zimmasiga oladi.

Qo'shnilar bilan "nol muammo": Qo'shni davlatlar bilan munosabatlarda muammolarning to'liq yo'qligiga erishish eng muhim maqsad sifatida belgilangan. Aynan shu bosqichda Toshkent Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining muntazam

maslahat uchrashuvlari g'oyasi ilgari surdi. Ushbu konferensiya O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mintaqani barqarorlik va o'zaro farovonlik zonasiga aylantirishga intilgan tamoyillarni belgilab berdi. Keyingi yillarda (2025–2026 yillargacha) bu yo'nalish o'zgarishsiz qoldi va "yangi mintaqaviy siyosat" doirasida rivojlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat kengashini tuzish va uning samarali faoliyatini tashkil etish bobidagi davlatimiz Rahbari taklifining real in`ikosi ekanligini ta`kidlagan holda ushbu tuzilmaning 2024 yil avgust oyida Ostonada bo`lib o`tgan oltinchi sammiti o‘z mohiyatiga ko‘ra, mintaqa davlatlarining hamkorlikni yanada izchil ilgari surish, Markaziy Osiyo beshligi doirasida har tomonlama kooperatsiyani kengaytirishga bo‘lgan intilishini namoyish etdi. Ushbu muloqotda mintaqa mamlakatlari birinchi marta **mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirishga doir yagona qarashni** – "Markaziy Osiyo – 2040" konsepsiyasini kelishib oldilar.

Jahon va mintaqa mutaxassislari aksariyati Shavkat Mirziyoyevning mintaqaviy siyosati nihoyatda pragmatik ekanligini ta`kidlamoqda. U iqtisodiy hamkorlik va transport aloqalari asosida qurilgan. O'zbekiston bevosita ochiq dengizga chiqa olmagan va shuning uchun u global bozorlarga faqat qo'shnilari bilan munosabatlarni rivojlantirish orqali kirishi mumkin. Bundan tashqari, qo'shni davlatlar bilan samarali hamkorlikni amalga oshirish, mintaqada barqarorlikni ta'minlashga yaqindan yordam bera olishi, birgalikdagi sa'y-harakatlar orqali diniy ekstremizm, terrorizm va giyohvand moddalar savdosi kabi turli xavfsizlikni ta`minlashga oid muammolar va tahdidlariga qarshi kurashishni osonlashtiradi.

*Tadqiqotning o`zak maqsadi* O`zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida Markaziy Osiyoda ilgari surgan amaliy siyosatining asosiy jihatlari mazmun-mohiyati tahlil qilishga urinilgan. Shu asosda dastlabki izlanishlarga asoslanib, quyidagi taxminlar ilgari surilmoqda:

1. O`zbekistonning suveren davlat sifatidagi Markaziy Osiyodagi siyosiy va diplomatik sa`y-harakatlari global va mintaqadagi obyektiv siyosiy vaziyat va yirik davlatlarlarning unga nisbatan manfaat va intilishlarini aks ettiradi.

2. Rasmiy Toshkentning mustaqil rivojlanish yillarida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi darajasi mintaqa va har bir davlat bilan munosabatlarining holati va istiqbolidan kelib chiqib amalga oshiriladi.

3. O`zbekistonning Markaziy Osiyodagi ochiq va ilgari intiluvchan siyosati, mintaqa mamlakatlari amaliy sa`y-harakatlarining xususiyatlarini inobatga olgan holdagi amaliy urinishlari barcha davlatlari uchun o`zaro, tenghuquqli aloqalarni rivojlantirish va barqaror hamda xavfsiz yashash sharoitlarini yaratadi.

Metodologiya

Maqola sifat nuqtai nazaridan tayyorlangan va unda normativ-huquqiy va institutsional yondashuv, hujjatli tahlil usuli hamda kontent-analiz usullari qo‘llanildi. Markaziy Osiyo davlat rahbarlari sammitlarining hujjatlari (2017-2025 yillarga oid), manbalar sifatida ochiq nashrlar, tahliliy maqolalar va mavzuga oid rasmiy hamda ilmiy ishlardan foydalanildi. Ushbu yondashuv tadqiq ob`ektining nafaqat formal xossalarini, balki uning diplomatik mohiyatini ham yoritib berishga imkon beradi. Maqolada quyidagi masalalar markaziy o‘rin tutadi:

- O`zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosatining shakllanishi jihatlari va xususiyatlari.
- Mazkur siyosatning butun mintaqadagi barqarorlik va xavfsizlikni ta`minlashga ta`siri.
- Toshkentning mintaqaviy ko‘p tomonlama diplomatiya usullaridan oqilona foydalanganligidan dalolat beradi.

Natija va muhokama

Markaziy Osiyo davlatlari sobiq Sovet Ittifoqi parchalangandan so`ng mintaqada vujudga kelgan xavfsizlik tizimining eng pastgi garajadaligi va mamlakatlarlar

o`rtasidagi munosabatlar ishonchsiz holatidagi sharoitda hamkorlik qilishdi. Bu davrga xos mintaqa davlatlari o`rtasidagi chegaralarining deyarli to‘liq yopilganligi, bu hududlarda chegaralar bilan bog`liq mojarolar va minalangan dalalar, transport blokadalari, savdo sohasida baland to‘siqlar o‘rnatilganiga guvoh bo`lish mumkin edi. Terrorizm xavfi, suv resurslari uchun kurash, Afg`onistondagi nobarqarorlik vaziyati sharoitida har bir davlat xavsizlikni ta`minlash bilan bo`g`liq muammolarni asosan o`zlari hal qilishga urunishlari hamda boshqa ob`ektiv va sub`ektiv sabablarga ko`ra mavjud bo`lgan qiyinchiliklarni baholi qudrat hal qilishga harakat qildilar.

2016-yilda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti etib Shavkat Mirziyoyevning saylanishi Toshkentning Markaziy Osiyoda umuman yangitdan shakllantirilgan siyosatni ishlab chiqishga imkon berdi. Bu qaysidir ma`noda strategik burilish bo`lib, bu sa`y-harakatlar Toshkentning tashabbusiga asoslangan holda shaklan va siyosiy jihatdan teran mazmunli taraqqiyotga yo`naltirilgan siyosat edi. Bu aslida beshta davlat tomonidan birgalikda Markaziy Osiyoning zamonaviy qiyofasini o‘zgartirib, mintaqani tinchlik va hamjihatlik, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va hamkorlik makoniga aylantirish yo‘lidagi sa’y-harakatlarining zohir bo`lishi va muayyan hosilasi ediki, bu kabi serqirra gaoliyatning tashabbuskori O`zbekiston ekanligi jahon hamjamiyati tomonidan ham e`tirof etilmoqda.

So'nggi yillardagi Markaziy Osiyoning barcha davlatlari uchun daxldor voqealar, shuningdek, mintaqada sodir bo'layotgan jarayonlarni tahlil qilish natijasida Yer kurrasining bu hududlarida nisbatan qisqa vaqt ichida eski holga qaytmas ijobiy o`zgarishlar bo'lganidan dalolat beradi.

Xulosa

Yangi O‘zbekistonda barcha sohalarda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda, iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bularning barchasi jamiyat ehtiyojlari va Prezident Shavkat Mirziyoyevning

O‘zbekistonni tarixiy rivojlanishining mutlaqo yangi bosqichiga olib chiqish irodasi bilan bog‘liq.

Samarali mintaqaviy diplomatiyani olib borish, Markaziy Osiyoda qulay siyosiy muhit yaratish, mintaqaviy davlatlar bilan konstruktiv muloqot va o‘zaro manfaatli sheriklikni o‘rnatish, xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishlari sifatida talqin etiladi.

Bugungi kunda beshta davlat rahbarlarining siyosiy birlashishi tufayli Markaziy Osiyo ishonch, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro manfaatli hamkorlik makoniga aylandi. Mintaqa yanada bardoshli va barqaror bo'lib, paydo bo'layotgan qiyinchiliklar va tahdidlarni mustaqil ravishda yengib, iqtisodiy va investitsiya faoliyati markaziga aylanib, progressiv rivojlanish yo'liga o'tdi.

Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarda mas'uliyatli va oldindan aytib bo'ladigan ishtirokchi sifatida global kun tartibini shakllantirishda tobora muhim rol o'ynay boshladi.

Aslida, O'zbekiston tashqi siyosatining Markaziy Osiyo yo'nalishini faollashtirish mintaqada sog'lom siyosiy muhitni yanada rivojlantirish, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarni sezilarli darajada yaxshilash va Markaziy Osiyoni yangi formatda yanada mustahkamlash va integratsiyalash uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади. https://president.uz/uz/lists/view/1063 20.09.2017.
2. Мавланов И.Р. К формированию новой концепции регионального сотрудничества в Центральной Азии. ЖУРНАЛ. Постсоветские исследования. https://cyberleninka.ru/article/n/k-formirovaniyu-novoy-kontseptsii-regionalnogo-sotrudnichestva-v-tsentralnoy-azii. 2019
3. https://kun.uz/ru/news/2020/09/23/glavnoye-iz-vystupleniya-i-luchshiye-

tsitaty-mirziyoyeva-na-75-y-sessii-genassamblei-oon#

4. Немецкий эксперт: значение Центральной Азии стремительно растет на фоне трансформatsii евразийской связности. https://isrs.uz/ru/content/6/post/2029. 16.04.2026.
5. Гэн Ицзинь. Особенности взаимоотношений Узбекистана и стран Центрально-Азиатского региона в эпоху И. Каримова: политические шаги и их причины Theories and Problems of Political Studies. 2021, Vol. 10, Is. 3A. http://publishing-vak.ru/file/archive-politology-2021-3/c8-geng.pdf
4. Захаров Ф.В. «Современная стратегия "мягкой силы" Узбекистана». https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennaya-strategiya-myagkoy-sily-uzbekistana 2020.
5. Komilov A.H. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning kelajagi uchun alohida mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan. https://www.gazeta.uz/oz/2024/08/14/abdulaziz-kamilov/.
6. O‘zbekiston tashqi siyosatida YANGI MARKAZIY OSIYO. https://yuz.uz/uz/news/105406 Fikr.14 avg 2024.
7. Притчин Станислав. Узбекистан от изоляции к региональному лидерству. https://russiancouncil.ru/analytics-and-comments/analytics/uzbekistan-ot-izolyatsii-k-regionalnomu-liderstvu/ 06. 03.2020.
8. «Центральная Азия - главный приоритет внешней политики Узбекистана». Опубликовано 08.08.2017 по адресу: http://uza.uz/en/politics/central-asia-the-main-priority-of-uzbekistan-s-foreign-polic-12-08-2017?m=y&ELEMENT_C0DE=central-asia-the-main-priority-of-uzbekistan-s-foreign-polic-12-08-2017&SECTI0N_C0DE=politics.
9. O‘zbekiston 2012-yilda qabul qilingan Tashqi siyosat konsepsiyasini yangilashni rejalashtirmoqda. https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/15/foreign-policy/

10. Stephen M. Bland. Uzbekistan Emerges as One of Europe and Central Asia's Fastest-Growing Economies. https://timesca.com/uzbekistan-emerges-as-one-of-europe-and-central-asias-fastest-growing-economies/#:~:text=Uzbekistan%20is%20on%20track%20to,Russia%20drags%20on%20the%20aggregate 15 October 2025.
11. Markaziy Osiyo – O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi https://gk-usbekistan.de/uz/2017/08/13/ozbekcha-markaziy-osiyo-ozbekiston-tashqi-siyosatining-asosiy-ustuvor-yonalishi/
12. Мавланов Ибрагим Раджабович. К формированию новой концепции регионального сотрудничества в Центральной Азии. https://cyberleninka.ru/article/n/k-formirovaniyu-novoy-kontseptsii-regionalnogo-sotrudnichestva-v-tsentralnoy-azii 2019.